



**Eshmadatov X.Y 7- sinflar uchun “Geografiya fanidan amaliy mashg’ulotlar  
daftari”**

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida**

**GEOGRAFIYA**

**fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va milliy o‘quv dasturi,  
7-sinf geografiya fanidan amaliy mashg’ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha metodik  
tavsiyalar asosida tuzildi**

**TUZUVCHI:**

**Eshmadatov X.Y Surxondaryo viloyati Denov tuman 19-maktab oliy toifali  
geografiya fani o‘qituvchisi**

**Ushbu uslubiy qo‘llanmada umumta’lim maktablarida, geografiya fanida  
amaliy mashg’ulotlarni tashkil etishga doir metodik tavsiyalar berilgan bo‘lib,  
o‘qituvchi va o‘quvchi uchun mo‘ljallangan**

## KIRISH.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bugungi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi ko'nikma hamda malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, ya'ni, muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarini kundalik turmushi jarayonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir.

O'quvchilarning bilimlarini reyting baholash usuli bilan baholashda biz ularni yoshiga va mavzusiga to'g'ri keladigan, hozirgi zamon xalqaro ta'lim tizimida keng qo'llanib kelinayotgan va samarali deb e'tirof etilayotgan nazorat topshiriqlarini tuzib , ulardan foydalanishimiz lozim. Hammamizga ma'lumki, 2022-2023 o'quv yilida geografiya fanlar guruhiga taaluqli bo'lgan VI,VII, X- sinf darsliklarimiz "Milliy o'quv dasturi"ga asosan tubdan yangilandi. Ushbu qo'llanmada shu yangi darslik asosida VII sinflarda o'quvchilarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida Respublika ta'lim maktabi tomonidan tavsiya etilgan taqvim - mavzu rejaga moslashtirilgan holda tuzilgan amaliy mashg'ulotlar va ularning yechimlari joy olgan.


Ushbu metodik tavsiyada keltirilgan amaliy mashg'ulotlar namunaviy bo'lib, o'qituvchi unga ijodiy yondashgan holda tegishli o'zgartirishlar kiritishi yoki alternativ variantlarini ishlab chiqishi mumkin. Ushbu topshiriqlarni ishlab chiqishda amaliy mashg'ulot turlarini xilma-xil bo'lishiga, Respublika ta'lim maktabi talablariga ham baholi qudrat moslashtirishga harakat qildim. Ushbu tavsiyada ayrim o'tib ketgan xatolar bo'lsa, foydalanuvchilardan oldindan uzr so'rayman.

***Muallif***

## 2.4. Amaliy mashg'ulot

**Daraja to'ri yordamida nuqtaning qaysi yarimsharda joylashganligini aniqlash**

1. Quyidagi chizmalardan foydalanib D va N nuqtalar qaysi yarimsharlarda joylashganligini aniqlang:



Javobi: D nuqta shimoliy yarimsharda va bosh meridiandan g'arbda joylashgan, geografik koordinatasi  $36^\circ$  shimoliy kenglik va  $64^\circ$  g'arbiy uzoqlik. N nuqta janubiy yarimsharda va bosh meridiandan sharqda joylashgan, geografik koordinatasi  $14^\circ$  janubiy kenglik va  $139^\circ$  sharqiy uzoqlik.

2. A nuqta Bosh meridiandan g'arbda, B nuqta esa sharqda, lekin har ikkala nuqta ham ekvatoridan janubda joylashgan bo'lsa, bu nuqtalarning qaysi yarimsharlarlarga tegishli ekanligini aniqlang.


Javobi: A nuqta Bosh meridiandan g'arbda, B nuqta esa sharqda joylashga. ikkala nuqta ham ekvatoridan janubda joylashgan bo'lsa janubiy yarimsharda joylashgan bo'ladi.

**Daraja to'ri yordamida geografik koordinatalarni aniqlash**  
“Yarimsharlar tabiiy xaritasi” yoki devorga osiladigan “Dunyoning tabiiy xaritasi”dan quyidagilarni:

1. Toshkent, Nyu York, Kanberra, Pekin, Rio de Janeyro shaharlarining geografik koordinatalarini; Toshkent -  $41^\circ$  sh.k va  $69^\circ$  shq.u, Nyu York -  $40^\circ$  sh.k va  $74^\circ$  g'.u, Kanberra -  $35^\circ$  j.k va  $149^\circ$  shq.u, Pekin -  $39^\circ$  sh.k va  $116^\circ$  shq.u, Rio de janeyro -  $22^\circ$  j.k va  $43^\circ$  g'.u.

2. Toshkent va Parij shaharlari bir-biridan necha gradus uzoqlikda joylashganligini aniqlang. Toshkent  $69^\circ$  shq.u va Parij  $2^\circ$  shq.u.  $69 - 2 = 67^\circ$

3. Quyidagi chizmalarda berilgan A va B nuqtalarning geografik koordinatalarini aniqlang:



Javobi: geografi koordinatari A nuqta  $66^\circ$  j.k va  $13^\circ$ , B nuqta  $38^\circ$  sh.k va  $142^\circ$  shq.u

**Berilgan koordinatalarga qarab xaritadan geografik obyektlarni (nuqtalarni) toppish**

1. F. Magellanning “Espanyol” nomli kemasi Hind okeanida halokatga uchradi. Uning geografik koordinatalari  $10^\circ$  janubiy kenglik va  $60^\circ$  sharqiy uzunlik ekani ma’lum. Bu nuqtani xaritadan toping va qaysi materikdan birinchi bo’lib ushbu joyga yetib borish va yordam berish mumkinligini aniqlang.

Javobi: Hind okeanining o’rta kengliklariga Madagaskar orolining shimoliy sharqida joylashgan bo’lib, Afrika materigi yaqin. Materikgacha taxminan 2220 km

2. Quyidagi geografik koordinatalarda qaysi geografik obyektlar joylashganligini aniqlang:

a  $11^\circ$  janubiy kenglik va  $143^\circ$  sharqiy uzunlik; javobi–York burni (Avstraliya).

b  $39^\circ$  janubiy kenglik va  $146^\circ$  sharqiy uzunlik; javob –Saunt ist point burni (Avstraliya).

c  $12^\circ$  shimoliy kenglik va  $72^\circ$  g’arbiy uzunlik; javobi–Galinas burni (Janubiy Amerika).

d  $5^\circ$  janubiy kenglik va  $81^\circ$  g’arbiy uzunlik. Javobi-Parinyas burni (Janubiy Amerika).

3.  $20^\circ$  shimoliy kenglik va  $155^\circ$  g’arbiy uzunlik hamda  $55^\circ$  janubiy kenglik va  $70^\circ$

gʻarbiy uzunliklarda qaysi orollar joylashganligini xarita va globusdagi daraja toʻridan foydalanib aniqlang. Javobi- $20^{\circ}$  shimoliy kenglik va  $155^{\circ}$  gʻarbiy uzunlikda Gavayi oroli joylashgan.  $55^{\circ}$  janubiy kenglik va  $70^{\circ}$  gʻarbiy uzunlik Olovli yer arxipelagi.

4. Quyidagi geografik koordinatalar qaysi boʻgʻizlarga tegishli ekanligini aniqlang:



a  $35^{\circ}$  shimoliy kenglik va  $8^{\circ}$  gʻarbiy uzunlik; javobi-Gilraltar boʻgʻizi.

b  $65^{\circ}$  shimoliy kenglik va  $170^{\circ}$  sharqiy uzunlik; javobi-Bering boʻgʻizi.

d  $60^{\circ}$  shimoliy kenglik va  $70^{\circ}$  gʻarbiy uzunlik: javobi-Gudzon boʻgʻizi.

#### 4.5. Umumlashtiruvchi dars

1. Quyida berilgan M va N nuqtalarning geografik koordinatalarini toping. Ushbu nuqtalardan Shimoliy qutb va ekvatorgacha boʻlgan masofani kilometr hisobida aniqlang (topshiriqni bajarishda  $1^{\circ}$  meridian uzunligi 111,1 km ekanligini unutmang).



Javobi: M nuqta geografik koordinatasi  $48^{\circ}$  j.k va  $153^{\circ}$  shq.u.  $90^{\circ}$  shimoldan ekvatorgacha qoʻshamiz  $48^{\circ}$  ni.  $138^{\circ} \cdot 111,1 \text{ km} = 15331,8 \text{ km}$  shimoliy qutbgacha. Ekvatorgacha  $48^{\circ}$  ni tashkil qilib  $111,1 \text{ kmga}$  koʻpaytiramiz  $48^{\circ} \cdot 111,1 = 5332,8 \text{ km}$ .

N nuqta  $44^{\circ}$  sh.k va  $75^{\circ}$  g.u. shimolda joylashganligi tufayli  $90^{\circ}$  dan  $44^{\circ}$  ni ayiramiz,  $46^{\circ}$  ni tashkil qiladi  $46^{\circ}$ ni koʻpaytiramiz  $111,1 \text{ km}$  ga  $5110,6 \text{ km}$  shimoliy qutbgacha masofa kelib chiaqadi. Endi ekvatorgacha masofan  $44^{\circ}$  sh.k ni  $111,1 \text{ km}$  ga koʻpaytiramiz, ekvatorgacha  $4888,4 \text{ km}$  ni tashkil qiladi.


2. Quyidagi rasmda 2 va 12 sonlari bilan qaysi gidrografik obyektlar ko'rsatilgan?

A Adriatika dengizi, Kerch bo'g'izi

B Azov dengizi, Tirren dengizi



D Kerch bo'g'izi, Toranto qo'ltig'i

E Liguriy dengizi, Azov dengizi



1-Kaspiy dengizi, 2-Azov dengizi, 3-Egey dengizi, 4-Ioniya dengizi, 5- Balxash ko'li, 6-Adriatika dengizi, 7-Qizil dengiz, 8-Bob-el-Mandob bo'g'izi, 9-Orol dengizi, 10-Qora dengiz, 11- Adan qo'tig'i, 12-Tirren dengizi, 13-Fors qo'ltig'i, 14-Sidra qo'lti'gi, 15-O'rta dengiz, 16- Kambey qo'ltig'i, 17-Tana ko'li.

3. Grenlandiya orolidan Antarktidaga tomon kemada yo‘lga chiqdingiz. Rasmdan foydalanib yo‘l yo‘lakay qaysi oqimlarga duch kelishingizni aniqlang. Ularning qaysilari iliq, qaysilari sovuq oqimlar?



Grenlandiya sovuq oqimidan to‘g‘ri janubi sharqiy yo‘nalishda suzib Golfstrim oqimi davomchisi bo‘lmish Shimoliy Atlantika iliq oqimiga duch keldik. Yevropaning g‘arbiy qirg‘oqlari boylab Kanar sovuq oqimiga tushib oldik, ekvatorga yaqin kelganimizda janubiy Passat iliq oqimi orqali janubi g‘arbga suzib, Braziliya iliq oqimiga duch keldik va to‘g‘ri janubga suza boshladik. Yo‘limizda g‘arbdan sharqqa esuvchi G‘arbiy shamollar sovuq oqimini kesib o‘tib Antarktida yarimoroliga yetib bordik.

4. Okean va dengizlar chuqurligini aniqlashda exolot asbobidan foydalaniladi. Okeandagi bir-biridan turli uzoqlikda joylashgan A, B va D nuqtalar tubiga kemadan exolot yordamida tovush to‘lqini yuborildi. A nuqtada yuborilgan tovush to‘lqini 2,5 sekunda, B nuqtada esa 5 sekunda, D nuqtada 9 sekunda kemaga qaytgan bo‘lsa:

a A, B va D nuqtalarda okeanning chuqurligi necha m ga teng?

Javobi: Suvda tovush tezligi sekundiga 1500 m ni tashkil qiladi. Exolot asbobi tovushni borib qaytganini hisoblaydi, shuni hisobga olib A nuqtada 2,5 sekundni ko‘paytiramiz 1500ga.  $2,5 \cdot 1500 = 3750$  ni 2 ga bo‘lamiz 1875m chiqadi. Chunki tovush chuqurlikka borib qaytyapti shuni 2 ga bo‘lamiz.

B nuqta  $5 \cdot 1500 = 7500 : 2 = 3750$  m. D nuqta  $9 \cdot 1500 = 13500 : 2 = 6750$  m


b A, B, D nuqtalardan yuborilgan tovush to‘lqini okean tubining qanday relyef shakllari (shelf, materik yonbag‘ri, abissal, okean botiqlari) dan qaytgan? A – materik

yonbag'ri ya'ni batial 3000 m gacha, B – Abissal 3000-6000m gacha, D – okean botiqlari.

d Qizil tusli okean gili aniqlangan chuqurliklardan qaysi birida eng ko'p uchrashi mumkinligini ayting va sababini tushuntiring. Sababi Okeanning qirg'oqdan uzoq eng chuqur qismlarida qizil tusli okean gili to'plangan. U Dunyo okeani tagining 36% ini qoplab yotadi. Okean gili jigarrang gilsimon balchiqdan iborat. U okeanning 5000 m dan chuqur qismlarida bo'ladi.


### 5.5. Amaliy mashg'ulot

1. Quyidagi xaritada qaysi tabiiy geografik obyektlar ko'rsatilganligini daftaringizga jadval shaklida yozing. Ulardan ixtiyoriy bittasining geografik o'rnini tavsiflang.



| № | Geografik obyekt turi | Geografik obyekt nomi |
|---|-----------------------|-----------------------|
| 1 | daryo                 | Nil                   |
| 2 | orol                  | Magaskar              |
| 3 | ko'l                  | Tanganika             |
| 4 | qo'ltiq               | Gnineya               |
| 5 | dengiz                | O'rta                 |
| 6 | cho'l                 | Namib                 |

2. Quyidagi rasmda harflar (A, B va D) va turli ranglar bilan qaysi sayyohlar bosib o'tgan yo'llar ko'rsatilganligini aniqlang. Bu sayyohlar qaysi hududlarni o'rganganligini daftaringizga yozing.




A.Vasko da Gama      B.David Livingston      D.Ibn Battuta

3. Quyidagi diagrammalarda Afrikadagi Qohira va Vindxuk shaharlaridagi oylik o'rtacha haroratlarning yil davomida o'zgarishi ko'rsatilgan. Har ikkala shahar ham tropik cho'llar va chalacho'llar tabiat zonasida joylashgan. Diagramma yordamida quyidagi savollarga javob bering:


a) Nima sababdan iyun, iyul, avgust oylarida Vindxuk shahrida eng past o'rtacha oylik harorat kuzatilgan, Qohira shahrida esa eng yuqori o'rtacha oylik haroratlar qayd etilgan?

b) Nima sababdan oktyabr, noyabr va dekabr oylarida Vindxuk shahrida eng yuqori oylik haroratlar kuzatilgan, Qohira shahrida esa o'rtacha oylik haroratlar past ko'rsatkichga ega?

Javob: yilning bu oylari shimoliy yarimsharda yoz fasli janubiy yarimsharda esa qish fasliga to'g'ri keladi. Vindxuk shahri ekvatoridan janubda joylashgan, Qohira esa ekvatoridan shimolda 30-parallelda joylashgan. Oktyabr, noyabr va dekabr oylarida Qohirada kuz faslisining oxiri, qishning boshlanishi hisoblanadi.



Vindxuk



Qohira


### 5.10. Amaliy mashg'ulot

1. 1-rasmni kuzating, unda Yerning sun'iy yo'ldoshdan olingan tasviri berilgan. Rasm asosida Afrikaning eng chekka g'arbiy nuqtasi — Almadi burnida yilning qaysi fasli va kuni ekanligini aniqlang. Buning sabablarini izohlang. 2-rasmda ko'rsatilgan A, B, D nuqtalarga qaysi sanalarda quyosh nurlari  $90^\circ$  li burchak hosil qilib tushishini aniqlang.

Javobi: rasmga qaraydigan bo'lsak quyosh asosan shimoliy yarimsharni yoritayotganini ko'rishimiz mumkin. Almadi burnida yoz fasli va 22-iyun yozgi quyosh turish kuniga to'g'ri keladi. A-nuqta shimoliy tropik chizig'iga yoz fasli va 22-iyun yozgi quyosh turish kuniga tog'ri kelyapti. B-nuqta ekvator chizig'i quyosh yilda ikki marta zenitda bo'ladi 21-mart va 23-sentabr kunlariga to'g'ri keladi. D-nuqta janubiy tropik chizig'iga to'g'ri kelib, 22-dekabr qishki quyosh turish kuni deyiladi. Bu vaqtda janubiy yarimsharda yoz chillasi boshlangan, shimolda esa qish chillasi boshlangan bo'ladi.



1-rasm




2-rasm

2. Rasmda ko'rsatilgan tabiat zonasi xarita-sxemada qaysi raqam bilan ko'rsatilgan hududga mos keladi? Ushbu tabiat zonasining tuproqlari, o'simliklari, hayvonot dunyosiga doir ma'lumotlarni jadvalga yozing.



1-rasm



2-rasm

Rasmda 3 raqami bilan sernam ekvatorial o'rmonlar zonasi tasvirlangan

| Tuproqlari              | O'simliklari                                                                                                                                | Hayvonot dunyosi                                                                               |
|-------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------|
| qizil-sariq<br>ferralit | o'simliklarning 25 000 turi,<br>jumladan, daraxtlarning<br>1 000 turi mavjud.<br>Yuqori yarusda (35–50 m)<br>seyba, palma daraxtlari, o'rta | maymunlar — gorilla,<br>shimpanze,<br>martishka.<br>popukquloq cho'chqa,<br>Afrika bug'uchasi, |

|  |                                                                                                                                                              |                                                                                      |
|--|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
|  | <b>yarusda moyli palmalar, quyi yarusda esa rafiya palmasi bilan daraxtsimon paporotniklar, lianalar, eng pastda o't o'simliklar va butazorlar tarqalgan</b> | <b>mitti begemot (bo'yi 80 cm gacha), okapi, o'rmon fili, yirtqichlardan qoplon.</b> |
|--|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|

3. Afrika iqlimiga oid quyidagi diagrammada o'rtacha oylik harorat va yog'in miqdorining yil davomida o'zgarishi ko'rsatilgan.



a ushbu iqlim diagrammasi quyidagi xarita-sxemada raqamlar bilan ko'rsatilgan qaysi

hududga mos kelishini aniqlang. Ushbu hudud qaysi iqlim mintaqasida joylashgan?

Javob: Subekvatorial iqlim mintaqasi. Sernam yoz, quruq qish fasli xos.

b eng past o'rtacha oylik haroratlar qaysi oylarga to'g'ri kelishini ayting va buning sababini izohlang. Javob: Iyun, iyul, avgust, sentabr.

d eng ko'p va eng kam yog'in yog'adigan oylarni ayting. Yog'inlarning asosiy qismini qaysi havo massalari olib keladi? Javob: eng ko'p yog'in Iyun, iyul, avgustda, eng kam yog'in dekabr, yanvar, fevral, mart oylariga to'g'ri keladi. Atlantika okeanidan nam havo massalari kirib keladi.



4. Dunyoning tabiiy xaritasi va o'quv atlasidan foydalanib quyidagi tabiiy geografik obyektlarni Atlantika yoki Hind okeaniga tegishliligiga qarab jadvalga joylashtiring:

- |             |                |                    |                  |
|-------------|----------------|--------------------|------------------|
| 1. Karib;   | 6. Fors;       | 11. Mozambik;      | 16. Gibraltar;   |
| 2. Gvineya; | 7. La-Mansh;   | 12. Kanar;         | 17. Ueddell;     |
| 3. Musson;  | 8. Somali;     | 13. Bob-al-Mandob; | 18. Hamdo'stlik; |
| 4. Biskay;  | 9. Tirren;     | 14. Adan;          | 19. Bosfor;      |
| 5. Azov;    | 10. Golfstrim; | 15. Arabiston;     | 20. Bengaliya.   |

| Okeanlar         | Dengizlar | Qo'ltiqlar | Bo'g'izlar | Okean oqimlari |
|------------------|-----------|------------|------------|----------------|
| Atlantika okeani | 1,5,9,17  | 2          | 7, 16,19   | 8,10, 12,      |
| Hind okeani      | 6,15,18   | 4,14,20    | 11,13,     | 3              |

### 5.11. Umumlashtiruvchi dars

#### 1. Rasmdan foydalanib quyidagi topshiriqlarni bajaring.

**a** daftaringizga namunadagi kabi jadval chizib, materik va okeanlarning paydo bo'lish ketma-ketligini eng qadimgisidan yoshiga tomon to'g'ri joylashtiring;


**b** materik va okeanlar qiyofasining o'zgarishi Yer taraqqiyotining qaysi eralariga mos kelishini aniqlang va jadvalga yozing;



|                             | Eng qadimgisidan -----> yoshiga |                           |                     |                                                         |
|-----------------------------|---------------------------------|---------------------------|---------------------|---------------------------------------------------------|
| Rasmda belgilanishi         | 2                               | 4                         | 3                   | 1                                                       |
| Qaysi eraga to'g'ri kelishi | Paleozoy 200 mln yil avval      | Mezozoy 100 mln yil avval | Kaynazoy 60 mln yil | Antropogen bosqich, kaynazoy erasi oxiri (hozirgi davr) |

**Javoblari** Manba 7-sinf geografiya darsligida 22-betdagi geoxronologik jadval va 25-betdagi 23-rasmdan olingan.

d quyidagi sxemada berilgan “?” belgisi o‘rniga mos keluvchi nomlarni to‘g‘ri yozing.



**Javoblari** 1-Lavraziya, 2-shimoliy Amerika, 3-Afrika, 4-Janubiy Amerika, 5-Avstraliya.

2. Atlasdagi Afrika tabiiy xaritasidan foydalanib, Afrikadagi eng yirik daryolar-ning boshlanish va quyilish joylarini aniqlang. Daftaringizga jadval ko‘rinishida yozing. javoblari

| Daryo nomi | Boshlanish joyi                                                                        | Quyilish joy                           |
|------------|----------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|
| Nil        | Sharqi Afrika yassitog‘ligidan<br>Oq nilva Efiopiya tog‘ligidan<br>Ko‘k nil nomi bilan | O‘rta dengiz                           |
| Kongo      | Sharqiy Afrika yassitog‘ligi                                                           | Atlantika okeani                       |
| Niger      | Sudan tekisliklari tabiiy<br>geografik o‘lkasi                                         | Atlantika okeani,<br>Gvineya qo‘ltig‘i |
| Zambezi    | Matumba tog‘idan                                                                       | Hind okeani                            |
| Oranj      | Drakon tog‘lari                                                                        | Atlantika okeani                       |
| Shari      | Darfur platosi                                                                         | Chad ko‘li                             |

**3. Quyidagi berilgan ma'lumotlar Atlantika yoki Hind okeanlariga tegishli ekanligini aniqlang va "+" belgisini qo'ying. javoblari**


| <b>Ma'lumotlar</b>                                              | <b>Atlantika okeani</b> | <b>Hind okeani</b> |
|-----------------------------------------------------------------|-------------------------|--------------------|
| Okean nomi daryo nomidan kelib chiqqan                          |                         | +                  |
| Shimoldan janubga tomon 12 000 km dan ortiq masofaga cho'zilgan | +                       |                    |
| Dengizlarining soni 20 ta                                       | +                       |                    |
| Okeanning asosiy qismi Janubiy yarimsharda joylashgan           |                         | +                  |
| Beshta materik oralig'ida joylashgan                            | +                       |                    |

**4. Quyidagi reja asosida Hind okeaniga ta'rif bering. javoblari**

| <b>T/r</b> | <b>Ta'rif rejasi</b>                         | <b>Javob</b>                                                                                                                                  |
|------------|----------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1          | Maydoni                                      | 76 mln kv.km                                                                                                                                  |
| 2          | Qaysi yarimsharda joylashgan?                | Janubiy yarimsharda                                                                                                                           |
| 3          | Qaysi materiklar qirg'oqlarini yuvib turadi? | Yevrosiyo, Afrika, Avstraliya, Antarktida                                                                                                     |
| 4          | Eng chuqur joyining nomi va chuqurligi       | Yava (Zond) cho'kmasi 7729 m                                                                                                                  |
| 5          | Qanday oqimlar mavjud?                       | Janubiy Passat, Shimoliy Passat, Madagaskar, Mozambik, Musson                                                                                 |
| 6          | Qanday yirik orol va yarimorollari bor?      | Yirik orollari-Madagaskar, Shri-Lanka, Sokotra, Yava, Sumatra, Timor. Yirik yarim orollari-Arabiston, Hindiston, Hindixitoy, Malakka, Somali. |


## 5.15. Umumlashtiruvchi dars

1. Quyidagi xaritada qaysi tabiiy geografik obyektlar ko'rsatilganligini jadvalga yozing. Qo'ltiq, yarimorol, orol, tog' tizmasi tushunchalariga ta'rif bering. Javobi.....

| № | Atamalar<br>(geografik<br>obyektlar turi) | Geografik obyektlar<br>nom |  |
|---|-------------------------------------------|----------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | qo'ltiq                                   | Katta Avstraliya           |                                                                                    |
| 2 | orol                                      | Tasmaniya                  |                                                                                    |
| 3 | tog' tizmasi                              | Katta suvayirg'ich         |                                                                                    |
| 4 | yarimorol                                 | Keyp york                  |                                                                                    |
| 5 | okean                                     | Tinch okean                |                                                                                    |
| 6 | okean                                     | Hind                       |                                                                                    |


2. **a** rasmdagi sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvir Avstraliyada yilning qaysi fasliga va kunning qaysi qismi ekanligini aniqlang. Javob; Avstraliya materigi ekvatoridan janubda joylashgan bo'lib, Avstralida yoz fasliga to'g'ri keladi.

**b** rasmda ko'rsatilgan tasvir Avstraliyaning sharqiy qismidagi Brisben shahrida soat 11:00 da olingan. Rasmning qaysi qismi (yuqori, pastki, o'ng yoki chap) shimol tomonga to'g'ri kelishini aniqlang. Javob: tepa shimol, pasti janub, o'ng tomon sharq, chap tomoni g'arb.



3. Quyidagi rasmlardan (A, B, D, E) qaysi birida savannalar va siyrak o'rmonlar tabiat zonasi ko'rsatilganligini aniqlang. Avstraliyaning savannalar va siyrak

oʻrmonlar zonasining tuproqlari, oʻsimliklari va hayvonot dunyosini jadval shaklida yozing. Javob: B rasmda



| Tuproqlari                      | Oʻsimliklari                                        | Hayvonot dunyosi                                                                               |
|---------------------------------|-----------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qizil ferralit, qizil jigarrang | evkalipt, akatsiya, kazuara, butilkasimon daraxtlar | kenguru, vombatlar (xaltali kemiruvchilar), xaltali chumolixoʻr, suv havzalarida qushlar koʻp. |

4. Quyidagi atama va tushunchalarni mos keluvchi tavsifi bilan moslashtiring:

|                    |                                               |
|--------------------|-----------------------------------------------|
| <b>skreb</b>       | Avstraliyaning tub joy aholisi                |
| <b>krik</b>        | choʻl zonasidagi doimiy yashil chakalakzorlar |
| <b>aborigenlar</b> | xaltali kemiruvchilar                         |
| <b>vombatlar</b>   | daryolarning quruq oʻzanlari                  |
|                    | <u>Javoblari:</u>                             |
| <b>aborigenlar</b> | Avstraliyaning tub joy aholisi                |
| <b>skreb</b>       | choʻl zonasidagi doimiy yashil chakalakzorlar |
| <b>vombatlar</b>   | xaltali kemiruvchilar                         |
| <b>krik</b>        | daryolarning quruq oʻzanlari                  |

## 5.18. Amaliy mashg'ulot

1. Tinch okean haqida berilgan ma'lumotlarni to'g'ri yoki noto'g'riligiga ko'ra ajrating. "Ha" yoki "Yo'q" debbelgilang. Javobi berilgan:

| Ma'lumotlar                                                                                               | Ha/yo'q |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Dunyodagi eng issiq okean — Tinch okean                                                                   | Ha      |
| Dunyodagi eng baland suv qalqishi Tinch okeanda kuzatilgan                                                | Yo'q    |
| Tinch okean dengiz transportidagi ahamiyatiga ko'ra birinchi o'rinda turgani sababli eng ko'p ifloslangan | Yo'q    |
| Tinch okean suvlaridan ko'plab mamlakatlar tuz ajratib oladilar                                           | Ha      |
| Chuqurligi 10 000 m dan ortiq bo'lgan botiqlar faqat Tinch okeanda uchraydi                               | ha      |

2. Ushbu rasmlarda ko'rsatilgan orollar hosil bo'lishiga ko'ra qanday turga kirishini aniqlang va jadvalga yozing:




| Orollarning hosil bo'lishiga ko'ra turlari | Orollar |
|--------------------------------------------|---------|
| Materik oroli                              | 2       |
| Vulqon oroli                               | 3       |
| Geosinklinal orol                          | 4       |
| Biologik (marjon) orol                     | 1       |

3. Avstraliyaning sharqiy qismidagi baliqchilar og'zi mahkamlangan shisha idishni topib olishdi. Idish eskiligidan, u okean oqimlari orqali oqib kelgan degan xulosaga keldilar. Shisha ochildi, ichidan ichidan qog'oz chiqdi. Bu qog'ozda XIX asrda halokatga uchragan kemandi tafsilotlari ko'rsatilgan edi. Kema ushbu xaritada ko'rsatilgan nuqtalardan (A,B,D,E) qaysi birida halokatga uchraganligini aniqlang.




Bilamizki barcha okeanlarda doimiy harakatlanadigan oqimlar mavjud ular ikki turga iliq va sovuq oqimlarga bo'linadi. Ularning xaritalari ishlangan. A nuqtadan halokatga uchragan kema qoldiqlari. Sababi ushbu rasmda berilgan bo'lib, Janubiy Amerika g'arbiy qismida halokatga uchragan kemadan tashlab yuborilgan shisha, Peru sovuq oqimi orqali avval shimolga keyin Janubiy passat iliq oqimi bilan g'arbga suzib ketadi. U o'z yo'nalishini Passatlararo qashi oqimga duch kelib yo'nalishini Sharqiy Avstraliya iliq oqimi orqali Avstraliya qig'oqlaridan oqib o'tadi. Sharqiy Avstraliya Iliq oqimi Avstraliya sharqiga katta miqdorda yog'in keltiradi.



## 5.23. Amaliy mashg'ulot

1 Rasmda Antarktidani o'rganishda ishtirok etgan qaysi sayyohlarning sayohat yo'nalishlari ko'rsatilgan? Darslikdagi ma'lumotlar hamda qo'shimcha manbalar asosida quyidagi jadvalni to'diring:



82-rasm. Antarktida materigining o'rganilishi xaritasi

| Materikni o'rganishda ishtirok etgan sayyoh va olimlar             | Tadqiqot olib borgan davri | O'rgangan va kashf etgan joylari                                                             |
|--------------------------------------------------------------------|----------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|
| F. Bellingsgauzen va M. Lazarev                                    | 1820- yili                 | “Mirniy” va “Vostok” kemalarida materikni birinchi bo'lib kashf etdi                         |
| norvegiyalik R. Amundsen                                           | 1911- yil 14-dekabrda      | Janubiy qutbni birinchi zabt etishga muvaffaq bo'ldi                                         |
| ingliz R. Skott                                                    | 1912- yil 18- yanvar       | Janubiy qutbni zabt etishga muvaffaq bo'ldi                                                  |
| Chana-gusenitsali poyezdlarda sovet tadqiqotchilarining yo'nalishi | 1957-1964-yillar           | Sovetskiy platosi, Mirniy, Vostok, Novolazerevsk yo'nalishini o'rganib Janubiy qutbga borgan |

2 Janubiy Amerika materigi chekka nuqtalarining geografik koordinatalarini aniqlang. Materikning shimoliy va janubiy chekka nuqtalari orasidagi masofani gradus va kilometrlarda aniqlang.

Shimoliy chekka nuqtasi- Galinas burni  $12^{\circ}$  sh.k va  $71^{\circ}$  g'.u

Janubiy chekka nuqtasi- Frouard burni  $53^{\circ}$  j.k va  $71^{\circ}$  g'.u

Sharqiy chekka nuqtasi- Kabu-Branku burni  $7^{\circ}$  j.k va  $34^{\circ}$  g'.u

G'arbiy chekka nuqtasi- Parinyas burni  $5^{\circ}$  j.k va  $81^{\circ}$  g'.u

Shimoliy va janubiy chekka nuqtalari orasidagi masofani  $12^{\circ}$  sh.kga  $53^{\circ}$  j.kni qo'shamiz.  $12+53=65$   $65^{\circ} \cdot 111,1 \text{ km} = 7221 \text{ km}$


G'arbiy va sharqiy chekka nuqtalari orasidagi masofani  $81-34=47$

$47 \cdot 110,6 \text{ km} = 5198 \text{ km}$

**Turli geografik kengliklarda parallell va meridian chiziqlarining  $1^{\circ}$  yoy uzunligi**

| Geografi<br>k kenglik<br>o hisobida | $1^{\circ}$ parallel<br>yoyining<br>uzunligi metr<br>hisobida | Ekvator<br>dan<br>parallelargacha<br>meridian<br>yoyinig<br>uzunligi | kengliklar<br>o hisobida | $1^{\circ}$ li meridian<br>uzunligi<br>metr hisobida |
|-------------------------------------|---------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|--------------------------|------------------------------------------------------|
| 0.                                  | 111321                                                        | 000000                                                               | -                        | -                                                    |
| 1.                                  | 111305                                                        | 110576                                                               | 0-1                      | 110576                                               |
| 2.                                  | 111254                                                        | 221153                                                               | 1-2                      | 110577                                               |
| 3.                                  | 111170                                                        | 331732                                                               | 2-3                      | 110579                                               |
| 4.                                  | 111052                                                        | 442312                                                               | 3-4                      | 110580                                               |
| 5.                                  | 110901                                                        | 552895                                                               | 4-5                      | 110583                                               |
| 6.                                  | 110716                                                        | 663482                                                               | 5-6                      | 110587                                               |
| 7.                                  | 110497                                                        | 774072                                                               | 6-7                      | 110590                                               |

3 Rasmda ko'rsatilgan A nuqtaning geografik koordinatalarini aniqlang. Bu nuqta Janubiy Amerika materigining qaysi qismida joylashgan? A nuqtadan Shimoliy qutbga yaqinmi yoki Janubiy qutbgami?



Rasmdagi A nuqtaning geografik koordinatasi  $7^{\circ}$  sh.k va  $73^{\circ}$ g'.u. A nuqta Janubiy Amerika materigining shimoli g'arbiy qismida joylashgan.


Shimoliy qutbgacha  $90^{\circ} - 7^{\circ} = 83^{\circ} * 111,1 \text{ km} = 9213 \text{ km}$


Janubiy qutbgacha  $90^{\circ} + 7^{\circ} = 97^{\circ} * 111,1 = 10776 \text{ km}$

Ekvatorgacha  $7^{\circ} * 111,1 = 777 \text{ km}$ . A nuqtaga shimoliy qutb yaqin.


4 Ushbu xaritadan foydalanib qaysi sayyohning sayohat marshrutlari aks ettirilganini aniqlang. O'rganilgan hududlarni daftaringizga qayd eting. Bu sayohatlar qaysi obyektlarning kashf etilishiga sabab bo'lgan?

Xristofor Kolumb 1492-1504 yillarda 4 marta Amerikaga sayohat qilgan va borgan joylarini umri oxirigacha Hindiston deb o'ylagan.





5 Quyidagi iqlim diagrammalari Janubiy Amerikaning qaysi iqlim mintaqalariga tegishli ekanligini aniqlang. Materikda iqlim ko'rsatkichlarining turlicha bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlang va tahlil qiling.



|                                                                                                                                                            |                                                                                                                                                                                            |                                                                                                                                                                                    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| G'arbiy sohilda mo'tadil den-giz iqlimi Yog'in 2000–3000 mm Qishda nisbatan iliq, havo harorati +4°, +6° C, yozi salqin keladi.. Havo harorati +8°, +10° C | Subekvatorial iqlim mintaqasida ikkita fasl aniq ifodalanadi. Yozda yog'in ko'p yog'adi (1 000–2 000 mm), o'rtacha oylik harorat +25 °C dan oshadi. havo harorati +20 °C atrofida bo'ladi. | Tropik mintaqaning Tinch okean sohillariga Peru sovuq oqimi yog'in keltirmaydi va deyarli yog'in yog'maydi. Atakama cho'li ustida yillab bir tomchi ham yog'in yog'masligi mumkin. |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|


## 5.29. Amaliy mashg'ulot

1. Rasmni kuzating va quyida keltirilgan savollarga javob bering.

a rasmda raqamlar bilan qaysi tabiat zonalari ko'rsatilgan? Javob: 1-Balandlik mintaqalari, 2-chalacho'l va cho'llar, 3-fasliy sernam o'rmonlar, 4-savanna va siyrak o'rmonlar, 5-sernam ekvatorial o'rmonlar, 6-o'rmon-dasht va dashtlar zonalari.

b qaysi raqam bilan ko'rsatilgan tabiat zonasida seyba, palmalarning xar xil turlari, qovun daraxti, kakao, geveya daraxtlari o'sadi? Javob: Sernam ekvatorial o'rmonlar.

d qaysi tabiat zonasi materik hududining katta qismini egallaydi? Javob: Savannalar



2. Shimoliy Amerika materigining shimoliy va janubiy chekka nuqtalarini xayolan tutashtiring. Tasavvur qiling, ana shu masofani samolyotda bosib o'tmoqchisiz. Shun-day vaziyatda qaysi tabiiy geografik obyektlar ustidan uchib o'tishingiz mumkinligini xaritadan aniqlang.

[illegible]

26

A nuqtaning geografik koordinatasi  $7^{\circ}$  sh.k va  $73^{\circ}$ g'.u. A nuqta Janubiy Amerika materigining shimoli g'arbiy qismida joylashgan.

Shimoliy qutbgacha  $90^{\circ} - 7^{\circ} = 83^{\circ} * 111,1 \text{ km} = 9213 \text{ km}$

Janubiy qutbgacha  $90^{\circ} + 7^{\circ} = 97^{\circ} * 111,1 = 10776 \text{ km}$

Ekvatorgacha  $7^{\circ} * 111,1 = 777 \text{ km}$ . A nuqtaga shimoliy qutb yaqin.



4. Janubiy Amerikadagi “sayyoramiz o‘pkasi” deb e’tirof etiladigan o‘rmonlar turli maqsad-larda qirg‘ilmoqda. Ushbu o‘rmonlarning kesilayotgani sabablari, oqibatlariga 3 tadan misol keltiring va muammo yechimini topish uchun o‘z takliflaringizni ayting (kamida 3 ta).

#### **Amazoniya o‘rmonlari kesilayotgani sabablari:**


- 1 Aholi sonining ortishi bilan o‘rmonlarning ichki qismlari turar joylar qurish va qishloq xo‘jaligi maqsadlarida o‘zlashtirilmoqda.
- 2 Sifatli qimmatli yog‘ochlar olinib, ularni xorij mamalakatlariga eksport qilmoqda.
- 3 Qog‘oz tayyorlashda ishlatilib, sifatli bio yoqilg‘I tayyorlanmoqda.

#### **Amazoniya o‘rmonlari kesilishining oqibatlari:**

- 1 Ko‘plab tirik organizmlar hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan kislorodning Yerdagi miqdori kamayadi.
- 2 Tuproq qatlami yemirilmoqda va unumdor qatlami yuvilib ketmoqda.
- 3 Yerosti suvlari sathi pasayib, ifloslanib ketmoqda.

### **Amazoniya o'rmonlari kesilishini oldini olishga qaratilgan takliflar:**

- 1 Amalda foydalanib kelinayotgan qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligi va hosildorligini oshirish, aholining yerlarga bo'lgan talabini qondirish.
- 2 Qo'riqxonalar sonini oshirish va aholini tabiat qo'ynida dam olishini tashkil qilish.
- 3 BMT tomonidan o'rmonlar maydonini qisqarishi oldini olish maqsadida ko'chatlar ekish umummilliy aksiyalar tashkil etish kerak.
5. Rasmni kuzating, undan nimani anglash mumkin?



**A** Shimoliy Amerika materigining maydoni va shakli globus hamda xaritada bir xil tasvirlanadi; Javob: materik shakli uchburchak shaklda joylashgan.

**B** Xaritada Shimoliy Amerika materigining janubiy qismlarida xatoliklar uchraydi;

Javob: sababi bu qismda aynan orollar soni juda ko'p va kichik qilib tasvirlanganidir.

**D** Shimoliy Amerika xaritasida xatoliklar qutbga tomon ortib borgan. Masalan, Grenlandiya oroli xaritada haqiqiy o'lchamidan ancha katta tasvirlangan; Javob: aslida xaritalarda xatolik ekvatorda kam faqat xatoliklar qutblarga tomon brogan sari o'trib boradi. Globusdagi o'chamlarni meridian burchaklariga moslab qirqilganda xaritaga aylanganda juda kata bo'shliqlar (xatoliklar) yuzaga keladi. Keyin shu xatoliklarni o'rni to'ldirilgandan keyin maydoni nisbatan kattaroq ko'rinadi.


**E** Xaritada materikning haqiqiy shakli va o'lchami aniqroq bo'ladi.

### 5.32. Umumlashtiruvchi dars

1. Quyidagi jadvalda Shimoliy Amerika materigiga berilgan ta'riflarni to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab ajrating. "Ha" yoki "Yo'q" deb belgilang va asoslang. Javob;

| Ta'rif                                                                     | Ha / Yo'q |
|----------------------------------------------------------------------------|-----------|
| Shimoliy Amerika materigi qirg'oqlarini to'rtta okean suvlari yuvib turadi | Yo'q      |
| Materikning sharqiy qismida zilzila va vulqon harakatlari ko'p uchraydi    | Yo'q      |
| Shimoliy Amerikaning shakli Janubiy Amerika kabi uchburchakni eslatadi     | Ha        |
| Tekisliklarda asosan cho'kindi tog' jinslari uchraydi                      | Ha        |
| Shimoliy Amerika boshqa materiklarga nisbatan qutbga tomon uzoq cho'zilgan | Ha        |

2. Atlasidan foydalanib Yevrosiyo materigining shimoliy va janubiy chekka nuqtalarini tutashtiring. Tasavvur qiling, ana shu masofani samolyotda bosib o'tmoqchisiz. Shun-day vaziyatda qaysi tabiiy geografik obyektlar ustidan uchib o'tishingiz mumkinligini xaritadan aniqlang.



Xaritaga qarab chizib olamiz. Yevrosiyaning chekka shimoliy nuqtasi Shimoliy muz okeani suvlariga tutash Chelyuskin burnidan chekka janubiy nuqtasi Piay burniga-cha samolyotda davom etamiz. Dastlab Taymir yarimorolida joylashgan chelyuskin burnidan samolyotda havoga ko'tarilamiz. Bu mintaqa arktika sahrolari zonasiga to'g'ri keladi, keyin tundra va o'rmon tundra zonasida joylashgan O'rta Sibir yassito'g'ligidan o'tdik. Keyin tayga zonasida joylashgan Tunguska, Angara daryolari ustidan o'tdik. Keyin janubga tomon avval Sayan tog'lari keyin Gobi sahrolari ustidan o'tdik janubga kelaverishda Kunlun, Tibet va Himolay tog'lari ustidan o'tdik. Hindixitoy yarim oroli va Malakka Yarimorolijanubi sharqida joylashgan Piay burniga yaqin bo'lgan Singapurning Changi aeroportiga etib keldik.

3. Quyida berilgan jadvalni to'ldiring:

| T/r | Okean nomi          | Okeanga tegishli dengizlar nomi | Dengizlar qaysi kengliklarda joylashgan? | Suvining xususiyatlari qanday?    |
|-----|---------------------|---------------------------------|------------------------------------------|-----------------------------------|
| 1   | Tinch okean         | Yava                            | ekvatorial                               | Issiq suv                         |
|     |                     | Sariq                           | O'rta                                    | Loyqa suv                         |
|     |                     | Amundsen                        | Qutbiy                                   | Sovuq suv Antarktida qirgoqlarida |
| 2   | Atlantika okeani    | Sargasso                        | Tropik                                   | Qizil suv o'tlari                 |
|     |                     | Qora                            | Motadil                                  | Ichki dengiz                      |
|     |                     | O'rta                           | Subtropiklarda                           | Ichki dengizlari ko'p             |
| 3   | Hind okeani         | Qizil                           | Tropik                                   | Issiq va sho'r                    |
|     |                     | Timor                           | Ekvatorial                               | Issiq suv va ichki dengiz         |
|     |                     | Arabiston                       | Tropik                                   | Xalq nomiga qo'yilgan             |
| 4   | Shimoliy Muz okeani | Oq                              | Taiga zonasida                           | Qalqish hodisasi bo'ladi          |
|     |                     | Barens                          | Subarktikada                             | Muzlamaydigan porti mavjud        |
|     |                     | Grenlandiya                     | Arktikada                                | Grenlandiya sovuq oqimi mavjud    |

Jadvalni yana ham o'zingizga moslab o'zgartirishingiz mumkin!

4. Quyidagi iqlim diagrammasida raqamlar bilan (1, 2, 3, 4...) oylar, qizil chiziq bilan oylik o'rtacha haroratlar, ko'k ustunlar bilan yog'ingarchilikning oylar bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatilgan. Rasm asosida quyidagilarga javob bering:

**a** ushbu iqlim diagrammasi xaritada qaysi raqam bilan ko'rsatilgan hududga to'g'ri keladi? Javob: 1 raqami bilan


**b** diagrammada ko'rsatilgan iqlim xususiyatlari qaysi iqlim mintaqasi uchun xos?

Javob: Subekvatorial iqlim mintaqasi. Diagrammada 3040 mm gacha yog'in ko'rsatilgan.


**d** oylik o'rtacha haroratlar o'rtasidagi farq yil davomida kam o'zgarishi

sabablarini ayting; Javob: bu mintaqa ekvatorning har ikkala tomonida joylashgan. Ikkita fasl sernam yoz, quruq qish fasli namoyon.

e oylik yog'in miqdorlaridan foydalanib, yillik yog'in miqdorini hisoblang. Jami qo'shganimda 1-330, 2-340, 3-400, 4-390, 5-340, 6-200, 7-140, 8-110, 9-140, 10-160, 11-190, 12-300. Jami 3040 mm




5. Rasmda raqamlar bilan Shimoliy Muz okeaniga tegishli qaysi dengizlar tasvirlanga-nini aniqlang. ularni ichki va chekka dengizlarga ajrating. Bofort va Baffin dengizlari Shimoliy Amerika materigi tabiatiga ta'sir ko'rsatadi. Dengizlar shimoliy qutbiy doira ichkarisida joylashishining ijobiy va salbiy jihatlari haqida fikr yuriting. Yilning asosiy qismi muz bilan qoplanganligi tufayli kemalar qatnoviga halaqt beradi. Navigatsiya davri 3-4 oy davom etadi. Atom muzyorar kemalar kemalar qatnovi muddatini uzaytirishi mumkin. Norvegiya va Barens dengizlari iqliq suvlari baliqlarga juda boy,



### 5.38. Amaliy mashg'ulot

1 Ushbu rasmda Yevrosiyo va Shimoliy Amerika materiklari o'rtasidagi xalqaro havo yo'llari ko'rsatilgan. Rasm asosida quyidagi savollarga javob bering:



1) Nima uchun Shimoliy Amerikadan Yevrosiyoga uchadigan samolyotlar doimo A yo'ldan foydalanadi?


2) Nima uchun Yevrosiyodan Shimoliy Amerikaga uchadigan samolyotlar doimo B yo'ldan foydalanadi?

a A yo'ldan havo yo'lida tirbandlik vujudga kelmasligi uchun foydalaniladi,


b 1) A yo'l Yevrosiyo va Shimoliy Amerika o'rtasidagi eng qisqa masofa, Yer sharsimonligi sababli yoysimon shaklda ko'ringan; A yo'lga nisbatan uzoqroq bo'lishiga qaramay, shamol yo'nalishi yoqilg'ini tejashga yordam beradi.

2 Atlasdan foydalanib Yevrosiyo materigining shimoliy va janubiy chekka nuqtalarini tutashtiring. Tasavvur qiling, ana shu masofani samolyotda bosib o'tmoqchisiz. Shun-day vaziyatda qaysi tabiiy geografik obyektlar ustidan uchib o'tishingiz mumkinligini xaritadan aniqlang.

Xaritaga qarab chizib olamiz. Yevrosiyaning chekka shimoliy nuqtasi Shimoliy muz okeani suvlariga tutash Chelyuskin burnidan chekka janubiy nuqtasi Piay burnigacha samolyotda davom etamiz. Dastlab Taymir yarimorolida joylashgan chelyuskin burnidan samolyotda havoga ko'tarilamiz. Bu mintaqa arktika sahrolari zonasiga to'g'ri keladi, keyin tundra va o'rmon tundra zonasida joylashgan O'rta Sibir yassito'g'ligidan o'tdik. Keyin tayga zonasida joylashgan Tunguska, Angara daryolari ustidan o'tdik. Keyin janubga tomon avval Sayan tog'lari keyin Gobi sahrolari ustidan o'tdik janubga kelaverishda Kunlun, Tibet va Himolay tog'lari ustidan o'tdik. Hindixitoy yarim oroli va Malakka Yarimorolijanubi sharqida joylashgan Piay burniga yaqin bo'lgan Singapurning Changi aeroportiga yetib keldik.



3 Quyida raqamlar bilan Yevrosiyo materigidagi qaysi relyef shakllari ko'rsatilgan? Ular orasidan ekvatorga, Bosh meridianga, Shimoliy qutbga eng yaqin joylashganlarini aniqlang. Yoy shaklidagi tog' tizmasi rasmda qaysi raqam bilan ko'rsatilgan?



1-Buyuk Xitoy tekisligi, 2-Gang daryosi, 3-Himolay tog'lari, 4-Tibet tog'ligi, 5-Kunlun tog'ligi, 6-Pomir tog'lari, 7-Tyanshan tog'lari, 8-Oltoy tog'ligi, 9-Sayan tog'ligi, 10-G'arbiy Sibir passtekisligi, 11-Orol dengizi, 12-Mesopotamiya Pasttekisligi (Dajla va Furot daryolari), 13-Kavkaz tog'lari, 14-Sharqiy Yevropa tekisligi, 15-Alp tog'lari.

Ekvatorga eng yaqin joylashgani – Gang daryosi.

Bosh meridianga eng yaqin joylashgani – Alp tog'lari.

Shimoliy qutbga eng yaqin joylashgani – G'arbiy Sibir tekisligi.


## 5.42. Amaliy mashg'ulot

O'quv atlası yoki darslikdagi xaritadan foydalanib Yevrosiyo materigining shimoliy va janubiy chekka nuqtalarini xayolan tutashtiring. Tasavvur qiling, ana shu masofani samolyotda bosib o'tmoqchisiz. Shunday vaziyatda qaysi tabiiy geografik obyektlar ustidan uchib o'tishingiz mumkinligini xaritadan aniqlang. Tepadagi amaliy mashg'ulotlarga berilgan.

2. O'quvchi daftariga materik va okeanlarning joylashgan o'rnini soddalashtirib chizdi.


a) birinchi chizmada 1 raqami bilan Yevrosiyo, 2 raqami bilan Avstraliya materiklari ko'rsatilgan bo'lsa, 3, 4 va 5 raqamlari bilan qaysi okean va materiklar ko'rsatilganligini aniqlang.

b) ikkinchi chizmada B harfi bilan Atlantika okeani ko'rsatilgan bo'lsa, A, B, D, E, F, G harflari bilan qaysi materiklar ko'rsatilgan?



3. Quyidagi rasmlar orasidan Yevrosiyoga tegishlilarini ajrating. Ularning bir-biriga nisbatan joylashgan o'rnini aniqlang va mazkur geografik obyektlarning shakllanish sabablarini tushuntiring.

Yevrosiyoga tegishlisi A-Arabiston Yarimoroli, D-Hindiston yarimoroli, F-Himolay va Tibet tog'ligi. A-Arabiston yarimoroli 180 mln yil avval Afrika bilan bitta yaxlit materik bo'lgan. B-Somali yarimoroli, D-Hindiston yarimoroli Hind-Avstraliya plitasi bilan Yevrosiyo plitasi to'qnashishi natijasida hosil bo'lgan. E-Buyuk ko'llar, Shimoliy Amerikada muzlik davrida qalin muzliklarning og'irligi natijasida paydo bo'lgan.



4 Quyidagi rasmlardan antropogen tabiat komplekslarini aniqlang. Ularning ijobiy va salbiy jihatlari haqida fikr yuriting.



D-Antropogen kompleks.



Salbiy ta'siri: Sanoatning tez sur'atlar bilan o'sishi havo, suv va tuproqni ifloslantirib, tabiatga halokatli ta'sir ko'rsatmoqda. Gazsimon moddalar atmosferaga, qattiq va suyuq moddalar tuproq va suvga tushadi.

Shaharlarning o'sishi uylar, sanoat korxonalari, yo'llar qurish uchun yangi yer may-donlarini kengaytirishni talab qiladi. Yirik shaharlar atrofidagi dam olish hududlari ham o'zgarmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi kishilar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti.

Ijobiysiga o'zingiz qo'shimcha qilasiz....

### 5.43. Umumlashtiruvchi dars

1. Quyidagi rasmlarda berilgan nortalarning geografik koordinatalarini aniqlang. Ular qaysi yarimsharlarda joylashgan? Ushbu nuqtalar qaysi materiklarga tegishli? Ulardan ixtiyoriy bittasining geografik o'rnini tavsiflang.

|                                                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                      |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                                                                                                                 |                                                                                                                                    |
| <p>A. 17° sh.k va 93° g'.u. B. 13° sh.k va 98° g'.u. Shimoliy Amerikaning janubiy qismlari. A nuqta yonida Yukatan yarimoroli joylashgan. Sharqda Atlantikava g'arbi Tinch okeani suvlari yuvib turadi. Tropik iqlim mintaqasida joylashgan.</p> | <p>D. 18° sh.k va 73° shq.u E. 13° sh.k va 78° shq.u Hindiston yarimoroli Yevrosiyodagi eng yirik yarimorllardan hisoblanadi. Subekvatorial iqlim mintaqasida joylashgan. Qig'oqlarini hind okeani yuvib turadi.</p> |

2. Tabiati betakror, xilma-xil o'simlik va hayvonot dunyosiga ega deb hisoblovchi materigingizga quyidagi reja asosida qisqacha tabiiy geografik tavsif yozing:

Avstraliya materigini olishingiz mumkin.

**a** geografik o'rni- Avstraliya butunlay Janubiy yarimsharda joylashgan. Lotincha "australius" — janubiy degan ma'noni beradi. Quruqlikni shimol, g'arb va janubdan Hind okeani, sharqdan Tinch okean suvlari o'rab turadi. Maydonining kichikligiga ko'ra unga materik-orol nisbatini berishgan. Odam yashaydigan materiklardan ancha uzoqda joylashgan. chekka nuqtalari- shimoli York burni, janubi Saut-Ist-Poynt, Sharqi Bayron burni, g'arbi Stip Poynt burni. maydoni-7 mln 659 ming km<sup>2</sup>;

**b** o'ziga xos xususiyatlari - maydoniga ko'ra eng kichik, eng quruq, aholisi eng kam, janubiy tropik chizig'i qoq o'rtasidan o'tadigan, evkalipt daraxti vatani (bo'yi 2 m dan 150 m gacha), materikdagi berk havza maydoni (60%) jihatidan birinchi o'rinda, noyob o'simliklar va xaltali hayvonlar vatani, butunlay janubiy yarimsharda joylash-gan, hozirgi zamon muzliklari bo'lmagan yagona materik.;

d materik tabiatining o'rganilishi (unda ishtirok etgan kamida 3 ta sayyoh) ;

| Yillar       | Sayyoh, tadqiqotchi | O'rganilgan (kashf etilgan) hududlar                                |
|--------------|---------------------|---------------------------------------------------------------------|
| 1606-y.      | Luis Torres         | Avstraliya va Yangi Gvineya oroli oralig'idagi Torres bo'g'izi      |
| 1642–1644-y. | Abel Tasman         | Materikning shimoli-g'arbiy va shimoliy qirg'oqlari, Tamaniya oroli |
| 1770-y.      | Jeyms Kuk           | Materikning sharqiy qirg'oqlari                                     |

e geologik tuzilishi, eng ko'p tarqalgan foydali qazilmalari; Avstraliya qadimgi geologik o'tmishda Gondvana materigining bir qismi bo'lgan. Mezozoy erasining oxiriga kelib Avstraliya mustaqil materik tariqasida shakllandi. Materik asosini qadimgi qattiq va mustahkam platforma tashkil etadi. U Hind-Avstraliya litosfera plitasining bir bo'lagidir. Platformaning mustahkam kristalli zamini materikning shimolida, g'arbida va markaziy qismlarida yer yuzasiga chiqib yotadi. Ayniqsa, kristall jinslardan iborat platformaning zaminida temir, mis, qo'rg'oshin, rux, uran rudalari, qalay, oltin, platina kabi rudali qazilmalar joylashgan. Cho'kindi jinslar bilan qoplangan hududlarda fosforit, osh tuzi, toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, neft, tabiiy gaz tarkib topgan.

f relyefining alohida jihatlari, eng baland va past joylari;

Materikning relyefi Afrika relyefiga o'xshash, lekin nisbatan oddiy. Uning zaminida Avstraliya platformasi joylashgan. Materikning 95% hududi pasttekislik va yassitog'liklardan, 5% i tog'lardan iborat. Relyef tuzilishiga ko'ra uch qismdan iborat. Materikning eng past joyi (Eyr Nordko'li, –16 m). eng baland joyi janubiy qismidagi Avstraliya Alpi tog'lari (Kossyushko cho'qqisi, 2228 m)

g iqlimi va uning o'zgaruvchanligi; iqlimi, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim mintaqalari. Avstraliyaning geografik o'rni, havo massalari, okean oqimlari, relyefi materik iqlimini hosil qiluvchi omillardir. Avstraliyaning katta qismi tropik quruq iqlimdir. Materikning deyarli qoq o'rtasidan janubiy tropik chizig'i kesib o'tadi. Natijada uning katta qismida atmosfera bosimi yuqori bo'ladi. Avstraliya Janubiy Afrika bilan bir xil iqlim mintaqalarida joylashgan bo'lsa ham, harorat yuqoriroq bo'ladi, yog'in esa ancha kam yog'adi. Avstraliya g'arbdan sharqqa tomon ancha masofaga cho'zilgani uchun uning g'arbiy va markaziy qismlari ustida kontinental havo massalari tarkib topadi. Bundan tashqari, materik okean sathida uncha baland emas.

h materik qirg'oqlarini yuvib turuvchi okean va dengizlar; shimol, janub va g'arbdan Hind okeani suvlari, sharqdan esa Tinch okeani suvlari yuvib turadi.

i ichki suvlari va ularning joylashuvi;

Avstraliyada sersuv katta daryolar yo‘q, chunki materikning katta qismi quruq tropik mintaqada joylashgan. Materikning 60% maydoni oqmas ichki berk havzaga, 7% i Tinch okean va 33% i Hind okeani havzasiga qaraydi. Materikning ichki cho‘l va chalacho‘llari uchun vaqtincha oqadigan, qurib qoladigan daryolar xosdir. Bular Avstraliyada kriklar (daryolar) deb ataladi.

Materikning eng katta daryo sistemasi Murrey va uning eng katta irmog‘i Darling daryosidir. Bu daryolar Katta Suvayirg‘ich tizmasidan boshlanadi. Darling qurg‘oqchilik davrida quyi oqimida qurib qoladi.

Avstraliya ko‘llarining ko‘pi oqmas ko‘llar, shu sababli sho‘rlangan. Ko‘p ko‘llar faqat yog‘ingarchilik davrida suv bilan to‘ladi. Ko‘llardan eng yirigi — Eyr Nord ko‘li, u okean sathidan 16 m pastda joylashgan. Uning maydoni suv bilan to‘lgan paytda 15 ming km<sup>2</sup> ga yetadi.

Yerosti suvlari tanqisligini qisman yerusti suvlari qoplaydi. Yerosti suvlari artezian havzalarda to‘plangan.

j tabiat zonalari, ularga xos o‘simlik va hayvonlar;


Materikda quyidagi tabiat zonalari tarkib topgan. Fasliy nam o‘rmonlar materikning shimoli-sharqiy sohillarini egallaydi. Daraxtlardan palma, lavr, daraxtsimon paporotniklar, evkaliptlar ko‘p uchraydi. Tropik o‘rmonlarda xaltali ayiq — koala, lirodum, kenguru, xaltali iblis, o‘rdakburun, yexidna, rang-barang to‘tilar, qushlar yashaydi ( -rasm). Savannalar va siyrak o‘rmonlar materikning shimoliy, sharqiy qismlarida katta maydonlarni egallaydi. Savannalarda siyrak o‘rmonlar (evkalipt, akatsiya, kazuara, butilkasimon daraxtlar), o‘t hamda buta o‘simliklar mavjud. Bu zonada kenguru, vombatlar (xaltali kemiruvchilar), xaltali chumolixo‘r, suv havzalarida qushlar ko‘p.

Chala cho‘llar va cho‘llar zonasi materikning ichki qismida katta hududlarni egallaydi. Bu zonada efemer o‘simliklar bilan birga doimiy yashil butazorlar (evkalipt, akatsiyadan iborat) o‘tib bo‘lmas changalzorlarni — **skreblarni** ( -rasm) hosil qiladi. Bu zonada gigant kengurular, vombatlar, yexidna, dingo iti, emu tuyaqushi, zaharli ilonlar, mali — inkubator tovug‘i va kemiruvchilar yashaydi. Eng janubdagi subtropik iqlim mintaqasidagi tabiat zonalari hududiy xususiyatga ega. Materikning g‘arbiy qismida qattiq bargli o‘rmonlar va butalar (asosan, evkaliptlar), janubi-sharqida evkalipt o‘rmonlari, undan janubda doimiy yashil dub (eman)lar o‘sadi.

k tabiiy geografik o‘lkalari;

Avstraliya tabiati bir-biridan o‘zgacha bo‘lgan 7 ta tabiiy geografik o‘lkaga ajratiladi. Bular **Shimoliy Avstraliya** (Keyp York, Arnemlend va Kimberli yarim-

orollari), **Shimoli-sharq** (Katta Suvayirg'ich tizmasi va undan sharqdagi hududlar), **Janubi-sharq** (Viktoriya tog'lari, Murrey va Darling daryolarining quyilish qismi), **Markaziy tekislik** (Avstraliyaning ichki oqim hududi, Eyr Nord ko'li, Darling va Kuper krik), **G'arbiy Avstraliya** (Gibson, Viktoriya Katta cho'li, Katta Qumli cho'l, Nallarbor tekisligi, materikning juda katta g'arbiy qismi), **G'arbiy Avstraliya** (materikning chekka janubi-g'arbiy qismidan G'arbiy Avstraliya platosigacha bo'lgan hududlar) va **Tasmaniya oroli** tabiiy geografik o'lkalaridir



73-rasm. Avstraliya materigining tabiiy geografik o'lkalari xaritasi

1 materik tabiatini muhofaza qilish, qo'riqxonalari va milliy bog'lari.

Tabiatni muhofaza qilish va yo'qolib borayotgan kamyob o'simlik va hayvonlar-ni saqlab qolish uchun milliy bog'lar va qo'riqxonalar bunyod etilgan. "Kakadu" milliy bog'i, "Kossyushko" milliy bog'i, "Lichfield Park" milliy bog'i, "Yanchep Park" milliy bog'i, "Kent Grip" qo'riqxonasi, "Barma" qo'riqxonasi va boshqalar shular jumlasidandir.

3. Avstraliya tabiatiga qiziqqan bir guruh turistlar materikni janubiy tropik chizig'i bo'ylab kesib o'tishga qaror qildilar. Sayohat uchun yanvar oyini tanladi. Ular sayohati

davomida tabiati bir-biridan farq qiladigan 3 ta nuqta belgiladi (A, B va D). Har bir nuqtada o'zlari kuzatgan hodisalarni kundaligiga quyidagicha yozib bordi:

| Nuqtalar | Turistlar kuzatgan tabiat hodisalari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| A        | Mashinamiz bilan toshloqlar, dyunalar bilan qoplangan qumliklar ustidan yurib borar ekanmiz, uzoqdan ko'ringan kulrang kengurular e'tiborimizni tortdi. Mashinadan ularni tomosha qilish uchun tushganimizda havo harorati juda issiq edi, termometrimiz roppa-rosa 45 °C ni ko'rsatdi. Bu yerlarda siyrak holda akatsiya va turli butalar o'sardi. Yo'lda turli sudralib yuruvchi hayvon- lar (plashli kaltakesak, turli ilonlar), emu tuyaqushi, dingo itini uchratdik. Kechasi harorat juda ham pasayib ketdi, erta tongga yaqin termometrimiz hatto 0 °C ni ko'rsatdi. Atrofdagi toshloqlar kuzduz kuni harorat yuqori, kechasi sovuq bo'lgani uchun yirik qoyatoshlarning parchalanishidan hosil bo'lgan degan xulosaga keldik. Iqlim xaritasidan ushbu hududlarga yil davomida bor yo'g'i 100–300 mm atrofida yog'ingarchilik tushishini bilib oldik. |
| B        | Yo'lda davom etar ekanmiz, o't o'simliklari ko'paygani e'tiborimizni tortdi. Bu yerlarda daraxtlardan akatsiyalar, evkalipt, butilkasimon daraxt va turli o'tlarni uchratdik. O'simliklar zichligi ortib, turlarining ko'paygani yog'in miqdori nisbatan ko'p bo'lishini bildirardi, tushdan keyingi yomg'ir fikrimizni tasdiqladi. Bu yerda uchragan kengurularning rangi oldingilaridan farqli — jigarrang ko'rinishda edi, ularning rangi o't o'simliklar rangiga moslashgan edi. Shuningdek, o'rdakburun va yexidna, xaltali chumolixo'r, dingo iti kabi hayvonlarni ham uchratdik.                                                                                                                                                                                                                                                                     |
| D        | Sayohatimiz davomida tog' tizmalariga duch keldik. Tog' tizmasini oshib o'tganimizda ushbu tog'larning sharqiy yonbag'irlari nihoyatda o'simliklarga boy o'rmonlar ekani diqqatimizni tortdi. Bu yerda koalalar, qushlardan liredum, kakadu to'tiqushi, jannat qushlariga duch keldik. Palma, evkalipt daraxtlariga lianalar chirmashib ketgan edi. Iqlim xaritasidan bu yerlardagi yillik yog'in miqdori 2000 mm ekanligini bilib oldik.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |

Turistlar qayd etgan ma'lumotlaridan foydalanib:

a A, B, D nuqtalar qaysi tabiat zonalariga to'g'ri kelishini;

A nuqta chala cho'l va cho'llar zonasiga, B nuqta Savanna va siyrak o'rmonlar zonasiga, D nuqta esa sernam ekvatorial o'rmonlar zonasi.

b turistlar Avstraliya materigini qaysi yo'nalishda (sharqdan g'arbga yoki g'arbdan sharqqa) kesib o'tganligini va ular belgilagan nuqtalar quyidagi rasmlardan qaysi biriga mos kelishini aniqlang.

Javob: 4-rasm





d Mamlakatimizda yanvar oyi qish fasliga to‘g‘ri kelib, havo harorati juda past bo‘ladi, ushbu oyda Avstraliyada kunduz kuni termometr  $+45^{\circ}\text{C}$  ni ko‘rsatganini qanday izohlaysiz?

Javob oddiy: yerning yoritilish mintaqalariga qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston hududi shimoliy yarimsharning o‘rta kengliklariga to‘g‘ri keladi. Avstraliya ekvatoridan janubda asosiy qismi  $15^{\circ}$  paralleldan janubda joylashgan. Yanvar oyida quyosh asosan janubiy yarimsharni yoritayotgan bo‘ladi. Bizda qish, ularda esa yoz fasli.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1. 7-sinf geografiya darsligi. Toshkent 2022.**
- 2. 6-sinf geografiya atlas. 2016.**
- 3. O'zbekiston respublikasi milliy ensiklopediyasi.**
- 4. Yandex elektron kutubxonasi.**
- 5. 7-класс атлас. Дрофа 2022**
- 6. Vikipediya ma'lumotlari.**

## MUNDARIJA

|                                  |    |
|----------------------------------|----|
| Kirish.....                      | 3  |
| 2.4. Amaliy mashg‘ulot .....     | 4  |
| 4.5. Umumlashtiruvchi dars.....  | 6  |
| 5.5. Amaliy mashg‘ulot.....      | 9  |
| 5.10. Amaliy mashg‘ulot.....     | 11 |
| 5.11. Umumlashtiruvchi dars..... | 14 |
| 5.15. Umumlashtiruvchi dars..... | 17 |
| 5.18. Amaliy mashg‘ulot.....     | 19 |
| 5.23. Amaliy mashg‘ulot.....     | 21 |
| 5.29. Amaliy mashg‘ulot.....     | 25 |
| 5.32. Umumlashtiruvchi dars..... | 29 |
| 5.38. Amaliy mashg‘ulot.....     | 32 |
| 5.42. Amaliy mashg‘ulot.....     | 35 |
| 5.43. Umumlashtiruvchi dars..... | 37 |